

## HARBIY XIZMATCHILAR MAQOMINING DAVLAT TOMONIDAN KAFOLATLANISHI

A.A. Tursunboyev

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20843331>

*Annotatsiya.* Maqolada harbiy xizmatchilar maqomining normativ-huquqiy asoslari va ularni davlat tomonidan kafolatlash mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning maqomini takomillashtirishda qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yuzasidan amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** Qurolli Kuchlar, harbiy xizmatchilar maqomi, ijtimoiy-huquqiy kafolatlar, harbiy qonunchilik, huquqiy bo‘shliq, harbiy ombudsman, xalqaro standartlar.

## ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ГАРАНТИИ СТАТУСА ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

*Аннотация.* В статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы нормативно-правовые основы статуса военнослужащих и механизмы их государственной гарантии. Также проанализированы правовые пробелы в законодательстве по совершенствованию статуса военнослужащих и выдвинуты практические предложения по их устранению.

**Ключевые слова:** Вооруженные Силы, статус военнослужащих, социально-правовые гарантии, военное законодательство, правовой пробел, военный омбудсман, международные стандарты.

## STATE GUARANTEE OF THE STATUS OF MILITARY SERVANTS

*Annotation.* This article provides a scientific and theoretical analysis of the regulatory and legal foundations of the status of military personnel and the mechanisms for their state guarantee.

Legal gaps in the legislation on improving the status of military personnel were also analyzed, and practical proposals for their elimination were put forward.

**Keywords:** Armed Forces, status of military personnel, socio-legal guarantees, military legislation, legal space, military ombudsman, international standards.

Harbiy xizmatchilar maqomining normativ-huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlari va qonun osti hujjatlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan prinsiplari va normalari hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari tashkil etadi.

Jumladan, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 152-153-moddalarida harbiy xizmatchi shaxsi (maqomi) konstitutsiyaviy maqomda ekanligi, u mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan barqarorligini va rivojlanishini bir maromda ta‘minlovchi hamda konstitutsiyaviy tuzumning himoyachisi ekanligi belgilab berilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi[2], “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida”gi[3], O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 11-maydagi “Mudofaa to‘g‘risida”gi[4] O‘RQ-211-II-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-

martdagi 128-son “Muqobil xizmatni tashkil etish va O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining uni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi”[5] qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 22-fevraldagi 99-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik rezervidagi xizmatni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi”[6] qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-martdagi 119-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi”[7] qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-4447-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi[8] Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevral kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi[9] PF-23-son Farmoni harbiy xizmatchi va harbiy xizmatchilarning maqomini belgilab beruvchi huquqiy asoslar hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan hamda huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

Ular quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. *Harbiy xizmatchilarning erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatini muhofaza qilish.* Harbiy xizmatchilarni haqorat qilish, ularga nisbatan zo‘ravonlik ishlatish, zo‘ravonlik ishlatish bilan tahdid qilish, ularning hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni, qadr-qimmatini, turar joyi va mol-mulkiga tajovuz qilish kabi qilmishlar O‘zbekiston Respublikasining qonunlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlari normalariga muvofiq yuridik javobgarlikka sabab bo‘ladi. Mazkur qoidalar harbiy xizmatchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kompleks himoya qilishni ta’minlab, harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida ularning xavfsizligi va daxlsizligini kafolatlaydi.

2. *Erkin harakatlanish, turar-joyini tanlash huquqi.* Mazkur huquq, harbiy xizmatni o‘tashning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, harbiy xizmatchilar doirasida qonuniy cheklovlar o‘rnatiladi. Mazkur cheklov harbiy qismlarning doimiy jangovar shayligini ta’minlash hamda harbiy xizmatchilarning xizmatni o‘tash joyiga o‘z vaqtida yetib kelishi zarurati bilan taqozo etiladi.

3. *So‘z, fikrlash va e’tiqod erkinligi, axborotdan foydalanish huquqi.* Mazkur huquqlar shuningdek, ommaviy yig‘ilishlar, mitinglar va namoyishlarda ishtirok etish huquqlari harbiy xizmatchilarning o‘ziga xos maqomidan kelib chiqib muayyan cheklovlar o‘rnatiladi. Ushbu cheklovlar, eng avvalo, davlat va harbiy sirlarning daxlsizligini ta’minlash, shuningdek, harbiy boshqaruvning asosi bo‘lgan yakkaboshchilik hamda komandir (boshliq) buyruqlariga so‘zsiz bo‘ysunish tamoyillarini saqlab qolish zarurati bilan asoslanadi. Shunga muvofiq, harbiy xizmatchilar davlat va harbiy sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarni oshkor qilishga, shuningdek, komandirning buyruqlarini muhokama yoki tanqid qilishi mumkin emas. Mazkur cheklovlar harbiy xizmatchilar maqomining ajralmas elementi bo‘lib, Qurolli Kuchlarning samarali va barqaror faoliyat yuritishining asosiy omili hisoblanadi.

4. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan vijdon va din erkinligi huquqi.*

Bunday huquqlar harbiy xizmatchilarga ham to‘la tatbiq etiladi, biroq harbiy-xizmat munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ushbu huquqni amalga oshirishda muayyan cheklovlar mavjud.

Milliy qonunchilik talablariga ko'ra, harbiy xizmatchilar diniy marosimlarda faqatgina xizmatdan tashqari vaqtda, xususiy shaxs sifatida, o'z diniy mansubligini xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'lamagan holda ishtirok etishlari mumkin. Shu bilan birga, ularning o'z diniy e'tiqodlarini vaj qilib harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishiga, shuningdek, o'z xizmat mavqeidan biror-bir dinga nisbatan munosabatni targ'ib qilish maqsadida foydalanishi taqiqlanadi va javobgarlikka olib keladi.

5. *Davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi.* Konstitutsiyamizda fuqarolarga mazkur huquq kafolatlangan bo'lasada, harbiy xizmatchilar davlat hokimiyati hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylash va saylanish huquqiga ega emas. Ularga referendumlarda va saylovlarda ishtirok etish huquqi berilgan. Qurolli Kuchlarning siyosiy betarafligini ta'minlash hamda harbiy xizmatchilar maqomining o'ziga xosligidan kelib chiqib, mazkur huquqlarni amalga oshirishda qat'iy qonuniy cheklovlar mavjud. Jumladan, siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish, saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylanish shular jumlasidandir.

Mazkur huquqiy mexanizm harbiy xizmatchilarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash bilan birga, davlat harbiy boshqaruvining siyosiy jarayonlardan xolisligini va barqarorligini kafolatlashga xizmat qiladi.

6. *Mehnat qilish huquqi.* Mazkur huquq harbiy xizmatni o'tash orqali namoyon bo'lib, fuqarolarning ajralmas konstitutsiyaviy huquqlaridan biri hisoblanadi. Davlat kontrakt asosida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarga xizmat pog'onalarida (mansab) o'sish hamda kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatlarini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Bundan tashqari, harbiy xizmatchining malakasi va xizmat yillariga mutanosib ravishda ijtimoiy imtiyoz va kafolatlar hajmini oshirib borish qonunchilikda ko'zda tutilgan. Eng muhimi, kontrakt asosidagi harbiy xizmat davri harbiy xizmatchining umumiy mehnat stajiga qo'shib hisoblanadi va bu ularning mehnat faoliyatidagi barqarorlik hamda uzluksizlikni kafolatlashga xizmat qiladi.

7. *Dam olish huquqi.* Harbiy xizmatchilarning sog'ligi va farovonligini ta'minlashga qaratilgan fundamental konstitutsiyaviy huquq hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Qurolli Kuchlar Harbiy nizomlariga asosan, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar uchun xizmat vaqtining (ish haftasining) davomiyligi belgilangan mehnat me'yorlaridan oshmasligi kerak. Xizmat zarurati tufayli belgilangan xizmat vaqtdan ortiqcha, shuningdek, dam olish va bayram kunlari xizmat vazifalarini bajarishga jalb etilgan hollarda, harbiy xizmatchilarga tegishli qonun hujjatlari va idoraviy normativ hujjatlarda belgilangan tartibda kompensatsiya (qo'shimcha dam olish kunlari) berilishi kafolatlanadi. Mazkur qoidalar harbiy xizmatchilar maqomi doirasida ularning xizmat majburiyatlari va shaxsiy vaqti o'rtasidagi mutanosiblikni (balansni) ta'minlab, davlat harbiy tuzilmalar bo'linmalarining jangovar shayligi hamda shaxsiy tarkibning yuqori ma'naviy-ruhiy holatini barqaror saqlashning muhim omili hisoblanadi.

8. *Harbiy xizmatchilarning pul ta'minoti huquqi.* O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilishning asosiy shakli sifatida davlat budjeti hisobidan pul ta'minoti to'lanishi kafolatlanadi. Mazkur moddiy ta'minot harbiy xizmatchilar maqomining ajralmas elementi hisoblanib, uning aniq shakllanish mexanizmi va hajmi (miqdori) xizmatchining egallab turgan lavozimi, harbiy unvoni, xizmat muddati hamda xizmatni o'tashning o'ziga xos sharoitlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

9. *Harbiy xizmatchilarning oziq-ovqat va moddiy ta'minoti huquqi.* Harbiy xizmatchilarning muhim ijtimoiy-iqtisodiy huquqlaridan biri ularning davlat hisobidan oziq-ovqat va buyum mulki bilan ta'minlanishi, shuningdek, yashash va xizmatni o'tash joylarida tegishli savdo-maishiy xizmatlar bilan qamrab olinishidir. O'zbekiston harbiy qonunchiligida ushbu ta'minot turlari va xizmatlar harbiy xizmatchilarning jangovar shayligi va kundalik faoliyatini to'laqonli saqlab turish maqsadida maxsus me'yorlar asosida amalga oshirilishi qat'iy belgilangan.

10. *Uy-joy bilan ta'minlanish huquqi.* Uy-joyga bo'lgan huquq harbiy xizmatchilarning eng muhim va fundamental ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda milliy uy-joy va harbiy qonunchiligiga muvofiq, davlat harbiy xizmatchilarni turar joy bilan ta'minlashni o'z zimmasiga oladi. Bu kafolat amaliyotda harbiy xizmatchilarga xizmat turar joylarini ajratish, uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari asosida uy-joy sotib olish (qurish) uchun boshlang'ich badal pullarini davlat budjetidan to'lab berish, shuningdek, uy-joy bilan ta'minlangunga qadar ijara turganlik uchun har oylik pul kompensatsiyasini to'lash mexanizmlari orqali to'laqonli ro'yobga chiqariladi.

11. *Sog'liqni saqlash va tibbiy yordam olish huquqi.* Harbiy xizmatchilarning sog'lig'ini saqlash davlat himoyasidir. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga oid qonun hujjatlarida harbiy xizmatchilar va harbiy yig'inlar ishtirokchilari harbiy-tibbiy bo'linmalarda bepul davolanish, dori-darmon va tish protezlari bilan (qimmatbaho metallardan tashqari) ta'minlanish huquqiga ega.

Harbiy gospihallar yoki tegishli tibbiy uskunalar yo'qligida yoki shoshilinch holatlarda, boshqa istalgan (davlat yoki xususiy) tibbiyot muassasalarida ko'rsatilgan tibbiy xizmat xarajatlari bevosita harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar budjeti hisobidan qoplanishi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Ofitserlar tarkibi (katta ofitserlar) oila a'zolarining ijtimoiy himoyasi milliy qonunchiligimizda kafolatlangan bo'lib, ularga (turmush o'rtog'i va qonunchilikda belgilangan yoshdagi yoki nogironligi bo'lgan farzandlariga) harbiy-tibbiy muassasalarda bepul tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqi berilgan. Bu esa harbiy xizmatning jozibadorligi va ijtimoiy nufuzini oshiruvchi muhim omillardan biridir.

12. *Davlat majburiy sug'urtasi va yetkazilgan zararni undirish huquqi.* Milliy harbiy qonunchiligimiz talablariga ko'ra, haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar hamda harbiy yig'inlarga jalb etilgan fuqarolar davlat tomonidan majburiy shaxsiy sug'urta qilinadi.

Xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida ularning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rmini qoplash bo'yicha sug'urta to'lovlari to'g'ridan-to'g'ri davlat budjeti (tegishli vazirliklar mablag'lari) hisobidan, hukumat tomonidan tasdiqlangan maxsus nizomlar va huquqiy hujjatlar asosida kafolatli amalga oshiriladi.

13. *Ta'lim va madaniyat sohasidagi huquqlar* Harbiy xizmatchilar madaniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishi davlat tomonidan kafolatlangan. Konstitutsiya hamda tegishli qonunchilik normalariga muvofiq, harbiy xizmatchilar mamlakatning boshqa fuqarolari bilan teng qatorda ta'lim olish, ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanish va madaniy boyliklardan bahramand bo'lish huquqiga ega. Ular o'zlarining xizmat faoliyatidan tashqari vaqtlarda intellektual va madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida kutubxonalar, muzeylar, teatrlar va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalardan erkin foydalanishi, shuningdek, turli madaniy tadbirlar hamda intellektual tanlovlarda ishtirok etishi mumkin.

14. *Sud himoyasi va shikoyat qilish huquqi.* Milliy harbiy qonunchilik va Harbiy nizomlar talablariga asosan, harbiy xizmatchilar o'zlarining buzilgan huquq va manfaatlarini harbiy sudlar orqali himoya qilish kafolatiga ega. Agar harbiy xizmatchiga nisbatan komandirlar (boshliqlar) yoki boshqa mansabdor shaxslar tomonidan noqonuniy xatti-harakatlar sodir etilsa, u belgilangan bo'ysunuv tartibida shikoyat qilishga, ushbu qarorlardan norozi bo'lgan taqdirda esa himoyalani uchun bevosita sud yoki harbiy adliya organlariga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilar maqomi takomillashtirish bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Quyida ularning ayrimlarini tahlil qilishamiz.

1. *Qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlar.* Milliy tajribamizda harbiy xizmatchilarning maqomi haligacha yagona va yaxlit qonun hujjati bilan tartibga solinmaganligi, shuningdek, sohaga oid normalarning tarqoq holda turli qonunosti hujjatlarida aks etganligi amaliyotda huquqiy bo'shliqlarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, harbiy xizmatchilar maqomi bilan bog'liq o'zaro ziddiyatli tushunchalarni, yuridik kolliziyalarni keltirib chiqarib, normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarning turlicha talqin etilishiga olib kelmoqda. Fikrimizcha, ushbu yuridik noaniqlikni bartaraf etishning yagona yo'li harbiy qonunchilikni tizimlashtirish va "Harbiy xizmatchilarning maqomi to'g'risida"gi qonunni qabul qilishdir.

2. *Harbiy huquq normalarning xalqaro standartlarga mos kelmasligi.* Milliy harbiy qonunchilikning xalqaro huquq normalariga nomutanosibliigi harbiy xizmatchilar maqomini ro'yobga chiqarishda qator muammolarni keltirib chiqaradi. Xususan, harbiy xizmatchilarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash xalqaro inson huquqlari standartlariga, jumladan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt talablariga zid kelmasligi kerak. Rivojlangan davlatlar (AQSh, Germaniya, Fransiya) tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy me'yorlarni umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga moslashtirish Qurolli Kuchlarda qonuniylik, adolat va harbiy intizomni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

3. *Huquqiy bilimlar va savodxonlikning yetishmasligi.* Harbiy xizmatchilarning o'z huquq va erkinliklari, majburiyat va javobgarligi to'g'risida yetarli bilimga ega emasligi ularning qonuniy manfaatlarini buzilishiga zamin yaratuvchi asosiy omillardandir. Qo'shinlarda huquqiy targ'ibot va huquqiy ta'limni tizimli yo'lga qo'ymaslik harbiy xizmatchilar tomonidan qonun hujjatlarining noto'g'ri talqin qilinishiga, o'z huquqlarini mustaqil himoya qila olmasligiga va xizmat intizomining buzilishiga olib keladi.

4. *Mustaqil fuqarolik va jamoatchilik nazoratining yetishmasligi.* Harbiy xizmatchilarning huquqlari buzilishi va mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlarining oldini olishda mustaqil fuqarolik va jamoatchilik nazoratining yetishmasligi eng jiddiy muammolardan biri sanaladi. Armiyaning o'ziga xos yopiq tizimi va qat'iy yakkaboshchilik tamoyili sharoitida faqatgina ichki idoraviy nazorat bilan cheklanish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, rivojlangan demokratik davlatlar tajribasidan kelib chiqib, Qurolli Kuchlar ustidan mustaqil fuqarolik nazorati tizimini yaratish, xususan, Oliy Majlis va Prezidentga hisobdor bo'lgan ixtisoslashgan "Harbiy ombudsman" institutini joriy etish orqali harbiy xizmatchilarning buzilgan huquqlarini tiklash va himoya qilishning ta'sirchan mexanizmini shakllantirish zarur deb hisoblaymiz.

5. *Davlat ijtimoiy-siyosiy barqarorligining ahamiyati.* Harbiy xizmatchilar maqomini takomillashtirish bevosita mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va ijtimoiy muhitga bog'liqdir.

Qurolli Kuchlar tizimida harbiy xizmatchilarga nisbatan har qanday shakldagi kamsitish yoki ijtimoiy tengsizlikning yuzaga kelishi ularning qonuniy huquqlari poymol etilishiga olib keladi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar qonun oldida tengdir va bu tamoyil Qurolli Kuchlarda ham qat’iy ta’minlanishi shart. Shu bois, qo‘shinlarda sog‘lom ijtimoiy-siyosiy muhitni yaratish va harbiy xizmatchilarni turli tazyiqlar yoki ijtimoiy tengsizlikdan himoya qilish ularning maqomini amalda ro‘yobga chiqarishning eng muhim kafolatlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligiga muvofiq, harbiy xizmatchilar Konstitutsiyada kafolatlangan inson va fuqaroning barcha huquq hamda erkinliklariga egadirlar.

Shu bilan birga, ular harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muayyan qonuniy cheklovlar belgilangan. Xususan, harbiy qismlarning jangovar shayligini uzluksiz ta’minlash zarurati tufayli harbiy xizmatchilarning erkin harakatlanish, turar joy va yashash manzilini tanlash huquqlariga nisbatan tegishli cheklovlar o‘rnatiladi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, harbiy xizmatchilar maqomining takomillashtirish uchun harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, Qurolli Kuchlar ustidan mustaqil fuqarolik nazoratini ta’minlash hamda harbiy qonunchilikni zamonaviy talablar asosida muntazam takomillashtirish va eng asosiysi “Harbiy xizmatchilar maqomi to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish deb hisoblaymiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”, <https://lex.uz/>
2. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda O‘RQ-436-II-sonli “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahriri). “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 25-aprelda 478-II-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida”gi qonuni. “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 11 mayda O‘RQ-211-II-sonli “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahriri). “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-martda 128-son “Muqobil xizmatni tashkil etish va O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining uni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi” qarori. “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 22-fevralda 99-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik rezervidagi xizmatni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi” qarori. “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-martda 119-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi

Nizomni tasdiqlash haqida”gi” qarori. “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentyabrdagi PQ-4447-sonli “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori. “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevral kuni kuni PF-23-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).